



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Axmurodov D.Q**

---

## Amir Temurning “3 yillik”, “5 yillik” va “7 yillik” yurishlari tarixi

**Tilavova Guljahon**

JDPU, Tarix fakulteti

O‘zbekiston tarixi o‘qituvchisi

**Zokirova Muhlisa** JDPU,

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga 3 marta qo‘shin tortganligi xususida muallifning umumiy yondashuvi berilgan. Bu yurishlar tarixda „3 yillik“, „5 yillik“ va „7 yillik“ urushlar nomi bilan mashhur. 3 yillik (1386-1388) harbiy istilolar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko‘li atrofidagi yerlar egallandi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Eron, Suriya, Iroq, “3 yillik”, “5 yillik”, “7 yillik” urushlar, O‘rta Sharq

**Аннотация:** В этой статье дается общий подход автора относительно 3-кратного вторжения Амира Темура в Иран, Азербайджан, Ирак и Шам (Сирия). Эти кампании известны в истории как «3-летняя», «5-летняя» и «7-летняя» войны. В результате трехлетних (1386-1388 гг.) военных завоеваний были оккупированы Южный Азербайджан, северная часть Ирака, Грузия и земли вокруг озера Ван.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Иран, Сирия, Ирак, «трехлетняя», «пятилетняя», «семилетняя» войны, Ближний Восток.

**Annotation:** In this article, the general approach of the author is given regarding Amir Temur's 3-time invasion of Iran, Azerbaijan, Iraq and Sham (Syria). These campaigns are known in history as the "3-year", "5-year" and "7-year" wars. As a result of 3-year (1386-1388) military conquests, South Azerbaijan, the northern part of Iraq, Georgia and the lands around Lake Van were occupied.

**Key words:** Amir Temur, Iran, Syria, Iraq, "3-year", "5-year", "7-year" wars, Middle East

Dunyo tarixida o‘z davrining buyuk hukmdor va sarkardalari qatori tilga olinadiga buyuk fohir Amir Temur hisoblanadi. Buyuk jahongir tarix taqozosi va o‘rta asrlarning udum va taomiliga asosan o‘z davlati chegaralarini kengaytirishga harakat qildi. U Hindiston, O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga bir necha bor harbiy yurishlarni uyushtirdi. Amir Temur Eron, Suriya va Iroq hudulariga yurishlari davomida ushbu mamlakatlarda uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan o‘zaro nizolardan ustalik bilan foydalandi va urushlardan jabr chekayotgan xalqlarni bir bayroq ostida birlashtirdi.

Amir Temur o‘zining markazlashgan davlatini Movounnaxr hududida tuzadi. Sohirqiron o‘z davlatiga poytaxt etib har tomonlama qulay hudud Samarqandni

tanlaydi. Buyuk sarkarda Muvounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik va o'zaro nizolarga chek qo'yib, Sirdaryo bo'ylaridan Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlatga birlashtirdi. Amir Temur o'z davlatini mustahkamlash va savdo yo'llari ustidan nazoratni qo'lga kiritish maqsadida qo'shni mamlakatlarga yurishlarni boshlaydi. Dastlabki yurishlarni 1382-yilda muhim strategik nuqta hisoblangan Zakavkazeni zabt etishdan boshlaydi.<sup>8</sup>

Amir Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi olib borilgan harbiy yurishlarda g'alaba qozonadi. Ushbu g'alabalardan so'ng Amir Temur o'zining diqqat e'tiborini butunlay Eron, Iroq, Suriya hududlarini bosib olishga kirishadi. Xuroson va Eronni bosib olish ishlarini Temur hali To'xtamishxonni yengmasdan oldin boshlagan edi va endi bu ishni oxiriga yetkazish uchun jiddiy kirishadi. Fors yerlarini bosib olishda Sohibqiron Eronda hukm surgan siyosiy parokandalikdan foydalandi. XIV asrning ikkinchi yarmida Eronda birlashgan yagona davlat mavjud emas edi. Mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib idora qilinar edi. Ozarbayjonda Jaloirlar davlati, Sabsavorda Sarbadorlar davlati, Xirotda Kurdlar davlati hukm surardi.<sup>9</sup> Ushbu davlatlar birlashib Amir Temur davlatiga qarshi turgan taqdirda ham kuchli qo'shinga qarshi turishga yetadigan harbiy qudratga ega emas edilar. Sohibqiron mustahkam shahar devori va mashhur Ixtiyoruddin qal'asiga ega bo'lgan Hirot shahri 1381-yilda bo'lib o'tgan shiddatli janglardan so'ng zabt etiladi. Ushbu g'alabadan so'ng o'sha davrning ilmu ma'rifat va san'at markazlaridan hisoblangan Tus, Nishopur va Sabzavor shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Sohibqiron jangsiz taslim bo'lib, moli omon solig'ini to'lagan shaharlarga avf e'lon qilar edi. Shunday qilib Amir Temur Eronni bosib olish uchun harbiy yurishlarini davom ettirish uchun mustahkam istehkomlarni zabt etadi.

Amir Temur 1386-yildan boshlab "uch yillik", 1392-yildan "besh yillik" va nihoyat 1399-yilda "yeti yillik" harbiy yurishlari davomida Eron, Suriya va Iroqni bosib oldi.

1383-yilda Amir Temur Seyiston ba'zi manbalarda Sakistonni, so'ngra Balujistonni zabt etib, Eronning janubiy va shimoli-g'arbiy viloyatlari tomon askar tortadi. Eronning ushbu o'lkalarida o'sha vaqtda ikki sulola hukm surardi. Janubiy Forsda – Isfihonda Muzaffariylar hokim edi. Iroq va Ozarbayjon viloyatlari esa Jaloyiriylar hukmdorlari qo'lida bo'lgan. 1387-yilda Fors viloyatlarining hukmdori Shohshujo o'z yurtini talon-taroj va vayronagarchilikdan saqlab qolish maqsadida o'z ixtiyori bilan taslim bo'ladi. Shohshujo qizini Jahongir Mirzoni o'g'li Pirmuhammadga nikohga berib, sulhni mustahkamlaydi.

---

<sup>8</sup> Temur va temuriylar saltanati. 13-bet

<sup>9</sup> O'sha manba 16-bet

Jaloiirlardan Sulton Ahmad o'zining kurd suvoriylari va ozarbayjonlik harbiylardan tashkil topgan qo'shini bilan Temurga qarshi turadi. Ammo jangda muvaqqiyatsizlikka uchrab Bag'dodga chekinadi. So'ngra Amir Temur Araks daryosidan kechib o'tib, bir zarba bilan butun Kavkazni bo'ysundiradi. Naxichevan, Shirvon va Tbilisiga g'olibona kirib boradi. Gilonni bosib olgach, u yerdan Armanistonga o'tib, mashho'r Van qal'asini zabt etadi.

1392-yilda Sohibqiron Astrobod va Mozondaronni qo'lga kiritgach, shiddatli muhorabadan keyin tog'li Eronning asosiy shahri Omulni, so'ngra Luriston va Xuzistonni zabt etadi. Amir Temur Ozarbayjonni batamom bo'ysundirish uchun katta qo'shin bilan bir necha yurishlardan so'ng 1397-yilda o'z davlatiga qo'shib oladi.<sup>10</sup> Bu yurishlarni tashkil etishda buyuk sarkarda uzoqni ko'zlab ish yuritganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Amir Temur Eronni zabt etishda tayanch qal'alarni birin-ketinlikda bo'ysundirish orqali qo'shinning ta'minot yo'lini xavfsizligini ta'minlashni va dushmani kuchsizlantirishga ham erishadi.

Amir Temur o'z harbiy yurishlari davomida jangsiz taslim bo'lib, moli omon solig'ini to'lagan shaharlar va qal'alarni lashkarlari tomonidan talanishini taqiqlagan va bunday qal'a hamda shaharlarga o'z dorug'asini ya'ni shahar hokimini tayinlab, oz sonli qo'shin qoldirgan. Sohibqironning Isfahonni zabt etishda ham shahar aholisiga omonlik beradi. Shahar aholisi Amir Temur boshqa hududdaligida isyon ko'tarib dorug'ani va uch ming askarni tig'dan o'tkazadilar. Ushbu voqeadan xabar topgan buyuk sarkarda shaharni qatli om qilishga buyruq beradi. Lekin ushbu qirg'inda quolsiz kishilar, sayyidlar, shayxlar va hunarmandlarga tegilmagan.

Amir Temur Eron, Iroq va Suriyaga yurishlari davomida mahalliy xalq o'zaro urushayotgan sulolalar zulmidan charchagan ham edi. Jumladan "Temur tuzuklarida" shunday keltiriladi: "Iroq aholisining Muzaffariylar va turli toifadagi hukmdorlar zulmidan shikoyat qilib yozgan arizalari qo'linga tushgach, Iroqqa yurish tadorigini ko'rishga jazm qildim".

Amir Temur Iroqni zabt etishda qo'shinni turli mayda qismlarga bo'lib harakatlanishini ta'minlaydi. Bu usul orqali qo'shinning harakatlanishi osonlashishi va dushmani har tomonlama dog'da qoldirish ko'zlangan edi. Harbiy yurishda qo'shinlarni uch favjga bo'lib, asosiy qo'shından oldin yetib borishi Sohibqiron tomonidan buyuriladi. Iroqning har yer har yerida to'plangan dushman askarlari tarqab ketishadi. Amir Temur Sheroz qal'asiga yurishni amalga oshiradi. Bu davrda Sherozda Shoh Mansur hukmronlik qilardi. Ushbu ikki o'rtada bo'lib o'tgan jangda Shoh Mansur jangda halok bo'ladi.

---

<sup>10</sup> Temur va temuriylar saltanati. 13-bet

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buyuk sarkardaning Xorazm va Oltin O'rdaga qarshi kurashib ularni yengishi, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Hindiston, Suriya va Turkiyaga qilgan yurishlari Amir Temur davlati qudratini oshirdi. Amir Temur 27 mamlakatni o'ziga buysundirib, o'z davlatini jahonning buyuk imperiyalari qatoriga ko'tardi. Uning hukmronligi davrida Movavunaxr dunyo taraqqiyoti bilan bevosita bog'lanib, jahonning ilg'or mamlakatlaridan biriga aylandi. Buyuk ipak yo'lining katta qismi Amir Temur davlati nazoratiga o'tdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutq, 1996-yil 18-oktyabr, Toshkent. / I.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi" 5-tom- T:, 1997. 167-bet.
2. Muiniddin Natanziy "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" T. "O'zbekiston"-2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. - М.: Международные отношения. - 1980. - 341 б.
4. Omonulla Bo'riyev "Sohibqiron Amir Temur" T. "O'zbekiston"-2011. 76-bet
5. M.I.Ivanov "ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san'ati, strategiyasi va taktikasi". Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018. 10-bet
6. Hamdam Sodiqov "Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar". "Art Flax" Toshkent-2007. 279-bet.
7. Lyusen Keren "Amir Temur saltanati" T. Ma'naviyat 1999-yil. 0